“O‘ZKIMYOSANOAT” AJDA ERON ISLOM RESPUBLIKASI NEFT VAZIRINING O‘RINBOSARI AHMAD ASADZODA BOSHCHILIGIDAGI DELEGATSIYA BILAN UCHRASHUV BO‘LIB O‘TDI

// 12 September 2022 yil
https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/eron-uchrashuv



“O‘zkimyosanoat” AJda Eron Islom Respublikasi Neft vazirining o‘rinbosari Ahmad Asadzoda boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Unda ikki mamlakat o‘rtasida neft-kimyo sohasida hamkorlikni yanada rivojlantirish va yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatlari, jumladan, kimyo sanoati mahsulotlari eksport va importi borasida hamkorlikni kengaytirish, birgalikda yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan neft-kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan istiqbolli investitsiya loyihalarini amalga oshirish kabi masalalar muhokama qilindi.

Uchrashuv davomida Eron Islom Respublikasi delegatsiyasi tomonidan, mamlakatning neft-kimyo sanoati korxonalari, mavjud mineral o‘g‘itlar va kimyoviy mahsulotlar, sohaning ishlab chiqarish quvvatlari, eksport va import salohiyati, shu bilan birga, amalga oshirilayotgan yirik loyihalar va istiqboldagi rejalar haqida

taqdimot ham o‘tkazildi.

Tadbir yakunida birgalikda ishchi guruh shakllantirib, neft-kimyo sanoati sohasida hamkorlikni yanada rivojlantirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqishga kelishib olindi.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati




Uzkimyosanoat
uzkimyosanoat
uzkimyosanoat.uz
(+99878) 140-74-26